

**“LISON UT-TAYR” DOSTONIDA MUNOZARA****Mastonova Manzura Musurmon qizi**

mastonovamanzura770@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti filologiya fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15227419>**ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 05-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 10- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 16- Aprel 2025 yil

**KEY WORDS***hudhud, Simurg', pir,  
navoiyshunoslik, timsol, munozara***ABSTRACT**

*Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ramziy obrazlarga ega bo'lgan “Lison ut-tayr” dostoni va undagi ilk janrlardan bo'lgan munozara janri haqida mulohazalar berib o'tiladi. Ushbu janr vositasida muallif har bir obraz orqali o'quvchini fikrlashga, o'z ruhiy holatini anglashga undaydi. Doston hudhud va boshqa qushlar o'rtasidagi falsafiy bahslar orqali o'zbek mumtoz adabiyotida munozara janrining yuksak namunasi sifatida talqin qilinadi.*

Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o'zining adabiyotga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma'naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan, ezgu g'oyalari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan so'z san'atkoridir. Uning bizga qoldirgan merosi biz uchun beqiyos xazinadir. Uning “Lison ut tayr” dostoni munozara janri qo'llangan yetuk bir asar desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek mumtoz adabiyotida munozara janri alohida badiiy-uslubiy vosita sifatida shakllangan bo'lib, u, asosan, ijtimoiy, axloqiy va falsafiy muammolarni obrazlar tilida bayon etish, qarama-qarshi fikrlar orqali haqiqatni aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu janr Alisher Navoiy ijodida yuksak badiiy darajada namoyon bo'lgan. Uning “Lison ut-tayr” dostoni munozaraga asoslangan falsafiy-didaktik asar sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Doston Attorning “Mantiq-ut-tayr” asariga o'zbekona yondashuv bilan yozilgan bo'lib, unda qushlar va hudhud o'rtasidagi har bir bahs, har bir uzr – inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib beradi. Har bir qush o'zining yo'lga chiqmaslik sababini bayon etar ekan, aslida insoniyatning turli nafsiy to'siqlari, hayotiy qarashlari va ma'naviy ojizliklari timsolida namoyon bo'ladi. Hudhud esa haqiqat sari yo'l ko'rsatuvchi ruhiy rahnamo sifatida har bir munozarani chuqur ma'noga ega javob bilan to'ldiradi. Ushbu maqolada “Lison ut-tayr” dostonidagi munozara janrining badiiy-estetik xususiyatlari, uning tasavvufiy-falsafiy mazmuni hamda o'zbek adabiy merosidagi o'rni tahlil etiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Munozara – mubohasa, tortishuv degan ma'nolarni bildirib, Sharq mumtoz adabiyotida muayyan mavqe kasb etgan ramziy-allegorik janrdir. Munozara arabcha “tortishuv”, “fikir olishuv” ma'nolarini bildiradi. Adabiy termin sifatida esa fors-tojik va o'zbek klassik she'riyatida ma'lum janrning nomidir. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar konfliktga kirishadi. Obrazlar ko'pincha ramziy mohiyat kasb etib, munozara qiladilar. Munozara janri fors-tojik, o'zbek va boshqa xalqlar klassik she'riyatida muhim o'rin

tutgan bir janrdir [5, 44-47].

Dostonning syujeti majoziy bo'lgani kabi, undagi timsollar ham majoziydir. "Simurg' - Haqqa yetishish timsoli; Hudhud - murshid, piri komil ramzi; qushlar - tariqat yo'liga kirishga otlangan soliklardir" [2,193]. Navoiy Simurg'ni eng oliy zot deb e'tirof etadi. Hudhud rahnamoligidagi qushlarning ulug' maqsadi Simurg'ga yetish ekan, bu majoziy mazmun zamirida Haq vasliga yetishish uchun chekkan azob-uqubatlarini anglash mumkin.

Asarda asosiy qahramonlar qushlar bo'lsa-da, ammo hikoya va qissalarda tarixiy va badiiy to'qima obrazlar tasvirlanadi. Qizig'i shundaki, turli toifa va xususiyatga ega bo'lgan insonlar faoliyati haqida qushlar hikoya qiladi, ya'ni qushlarga insonlardan o'rnak va saboq olish kerakligi uqtiriladi. Shunday qilib, "Lison ut-tayr" dostoni falsafiy-tasavvufiy asar bo'lib, unda Alisher Navoiyning umri oxirlaridagi falsafiy-ijtimoiy va axloqiy qarashlari ramziy timsollar hamda tarixiy va badiiy to'qima obrazlar misolida gavdalantirilgan [4, 54]

Navoiy o'zining bu asarida qushlar munozarasidan foydalanib, o'z davrining ulkan falsafiy muammolarini hal qilib berdi, so'fiylarning mistik ta'limotlarini rad etdi. Navoiycha, xudo tabiatda zohir bo'lganlar, xudo tabiatdir, xudoning deyarli butuv sifatlarini shu tabiat olgandir. Birgina borliq xudo tabiat bordir, demak birgina hayot bordir, o'zi (odam) komil xudoning komil zuhuri bo'la turib yana shundaylikka aylanishga, ya'ni ko'pi foniy bo'lishga intilishi asossizdir.[5, 81-82]

### **Natijalar**

Asarda keltirilgan turli xil hikoya va qissalar ham dostonning yaxlit tarkibiy qismini tashkil etib, asosiy mavzuni har tomonlama yoritishga xizmat qiladi. Dostonning asosiy qahramonlari qushlar bo'lsa-da, ammo hikoya va qissalarda tarixiy va badiiy to'qima obrazlar tasvirlanadi. Turli xarakter va xususiyatga insonlar haqida qushlar hikoya qiladi, qushlar shu insonlardan o'rnak olishi tasvirlanadi. Shunday qilib, doston falsafiy-tasavvufiy asar bo'lib, unda Navoiyning umri oxirlaridagi falsafiy-ijtimoiy va axloqiy qarashlari ramziy timsollar hamda tarixiy va badiiy to'qima obrazlar misolida gavdalantirilgan.

### **Muhokama**

"Lison ut-tayr"dagi munozaralar, mohiyatan, inson va ilohiy haqiqat o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklarni aks ettiradi. Har bir qushning «uzri» – aslida, nafsining ovozi. Hudhud esa ruhiy uyg'otuvchi sifatida ularni haqiqat sari chorlaydi. Bu jihatdan doston tasavvufiy ruhdagi ruhiy sayohat yo'lini ko'rsatadi. Mazkur munozaralarning bugungi jamiyat uchun ham dolzarbligi shundaki, insoniyat hali ham o'z ma'naviy kamolotiga yo'l topishda turli bahonalar qilmoqda. Navoiy esa o'zbek tilining badiiy imkoniyatlari orqali bu uzrlar ortidagi haqiqatni ko'rsatadi.

### **Xulosa**

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni o'zbek mumtoz adabiyotida munozara janrining yuqori badiiy darajada ifodalangan namunasi bo'lib, unda tasvirlangan bahslar orqali chuqur ruhiy-falsafiy ma'no ochiladi. Asarda qushlar tili orqali insonlar hayotidagi eng dolzarb muammolar – nafs, dunyoga bog'liqlik, ma'naviy zaifliklar obrazli yoritiladi. Munozara janri esa o'quvchiga o'zini tanish, bahsni ichki o'zgarishlar sari yo'naltirish imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Lison ut-tayr" dostoni faqat badiiy asar sifatida emas, balki insonning ma'naviy o'sishi va o'zini anglash yo'lida yo'l-yo'riq ko'rsatadigan falsafiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan asar sifatida ham katta ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Навоий, А. (1991). Лисон ут-тайр. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
2. Сирожиддинов, Ш., Юсупова, Д., Давлатов, О. (2019). Навоийшунослик. Тошкент: Тамаддун нашриёти.
3. Tohirov S. (2021). Navoiysunoslik. Alisher Navoiy dostonlari va nasriy asarlarini sharhlab o'qitish. Samarqand davlat universiteti.
4. Абдувоҳидова, М. (1984). Ўзбек адабиётида мунозара. Тошкент: Ўзбекистон ССР «Фан» Нашриёти.
5. Karimov O. (2015). Mumtoz she'riyat janrlari. Namangan: Namangan nashriyoti.

